

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI
GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Tabiatshunoslik va geografiya
fakulteti dekani
_____ b.f.n. G'.Qodirov
“_____” _____ 2013 y

5140500 - “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

**“Tog' va tog' oldi hududlarida tuproq erroziyasi bilan bog'liq bo'lgan
geoekologik muommolar”**

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: JALILOV CHINGIZ

Ilmiy rahbar: kat.o'qit. USMONOV YU.

BMI “Geografiya va uni o'qitish metodikasi”
kafedrasi yig'ilishining _____ 2013y.
№__ sonli qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedara mudiri:

g.f.n. Q.Hakimov

JIZZAX-2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I-BOB. Tog' va tog' oldi hududlarida tuproq erroziyasi	
1.1. Tuproq erroziyasi haqida tushuncha.....	4
1.2 Tuproq erroziyasiga ta'sir etuvch omillar.....	6
1.3. Inson xo'jalik faoliyati va tuproq erroziyasi.....	9
II-BOB. Tog' va tog' oldi hududlarida tuproq erroziyasi bilan bog'liq geologik muommolar	
2.1. Tuproq gumus qatlamlarining yuvilishi.....	15
2.2. Jarlarning vujudga kelishi.....	19
2.3. Suffozion jarayonlar.....	23
III-BOB. Tog' va tog' oldi hududlarida tuproq erroziyasi bilan bog'liq geologik muommolarni bartaraf etish yo'llari	
3.1 Suvdan to'g'ri foydalanish.....	23
3.2 Ditomelioratsiya (o'simlik qoplamini saqlash).....	37
XULOSA.....	52
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	53

Oldimizda turgan muhim vazifalardan biri – bu yerimiz, tuprog`imiz unumdorligini doimiy ravishda oshirish bilan bog`liq ekani barchamizga yaxshi ayon. Bu maqsadga erishish uchun yerlarning meliorativ holatini yaxshilashdek o`ta dolzarb masalalarga e`tiborni yanada kuchaytirish talab etiladi.

I.A.Karimov

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish, uni bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirish uchun islohatlar o`tkazish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki qishloq xo`jaligida yetishtiriladigan mahsulotlar salmog`i Respublikamiz iqtisodiyotida muhim o`rin tutadi.

Ma`lumki, qishloq xo`jaligini yuritish tabiiy sharoit va tabiiy resurslarga, aniqrog`i tabiiy geografik landshaftlarga asoslanadi. Tabiiy geografik landshaftlarda qishloq xo`jaligi uchun eng muhimi bu – tuproqdir.

Ma`lumki, xohirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda yer resurslaridan, jumladan, sug`oriladigan va lalmi yerlardan okilona va samarali foydalanish hamda ularni muhofaza qilish shu kunning eng dolzarb masalasidir. Sug`orib dehqonchilik qilinadigan hudud yerlari hozirgi kunda qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirishda asosiy manba bo`lib qolmoqda. Ammo aholi sonining tez o`sishi tufayli tog` va tog` oldi hududlaridagi yerlardan ham foydalanish ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Shu sababli lalmi hududi tuproqlarining xossa-xususiyatlarini o`rganish bugungi kunning eng dolzarb vazifalari qatoriga kiradi. Lalmi yerlar asosan tog` va tog` oldi hududlari, tog` yonbag`irlarida joylashgan bo`lib, bu yerlarda qishloq xo`jalik ekinlaridan hosil yetishtirish asosan atmosferadan tushadigan yog`inlarga va tuproqlar unumdorligiga bog`liqdir. Bu yerlar murakkab relyefli sharoitda shakllanganligi tufayli, ulardan notug`ri foydalanish okibatida bahor faslidagi kuchli yog`in-sochinlar ta`sirida tuproqlarning ustki unumdor qismi yuvilishi natijasida eroziya jarayoni vujudga keladi. Eroziya jarayonlari esa, o`z navbatida

tuproqning unumdorligini belgilovchi asosiy xossalardan bo'lgan gumus miqdoriga ta'sir ko'rsatadi va uni tarkibini o'zgartirib, zahirasini kamaytiradi hamda tuproqlarning ekologik holatini yomonlashtiradi. Tuproqdagi organik moddalar miqdorini saqlash, ularni o'rnini to'ldirib borish, gumus hosil bo'lish jarayonini yaxshilash maqsadida eroziyaga qarshi agrotexnik chora-tadbirlarni qo'llash bilan birga tuproqdagi gumus tarkibini, zaxirasini chukur o'rganish muhim hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida islohatlarni o'tkazish yer resurslari, ularning ekologik va meliorativ holati, bir so'z bilan aytganda tuproq unumdorligi darajasi bilan bevosita bog'liq.

Shuning uchun ham bugungi kunda tuproqlarning unumdorligini oshirish, qishloq xo'jaligidagi asosiy ekinlar – g'alla va donli ekinlarning mo'ljaldagi hosilini saqlab qolish, uni ilmiy asosda boshqarish va muhofaza qilish yo'llarini ishlab chiqarish davr talabining eng muhimlaridan biridir.

Tadqiqotning ob'ekti. Tabiiy geografik landshaftlar va tuproqlarni ko'plab tabiiy hamda qishloq xo'jalik fanlari o'rganadi. Shu bilan bir qatorda, insonlarni ardoqlab, noz-ne'matlar bilan to'ydirayotgan bitmas-tuganmas boylik hamda zaruriy oziq mahsulotlari va kerakli xomashyo yetishtiradigan manba-tuproq tadqiqotimiz ob'ektidir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining asosiy vositasi bo'lmish yer-tuproq bioqatlamining barqarorligi va uning ekologik holatini saqlab turishda ham nihoyatda katta ahamiyatga ega. Obyekt bo'lib Jiizzax viloyati tog'' va tog'' oldi hududlaridagi qo'riq, lalmi va sug'oriladigan och tusli o'tloqi-bo'z, turli darajada eroziyaga uchragan tipik va to'q tusli bo'z, kuchsiz ishqorsizlangan jigarrang tuproqlar hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti- eroziya jarayonlari ta'sirida bo'lgan tuproqlarning xossa va xususiyatlari, organik moddasi tarkibi, unumdorligini hozirgi holatini ko'rsatib berish.

Tadqiqotning maqsadi. Tog'' yonbag'rida tarqalgan lalmi va sug'oriladigan tuproqlariga eroziya jarayonlarining ta'siri, tuproq xossa-

xususiyatlarini, gumus tarkibi va gumusli xolatini o'zgarishini aniqlash va tuproq unumdorligini saqlash, oshirishga doir ilmiy - amaliy asoslarini ishlab chiqish. Ilmiy tadqiqot ishi maqsadini amalga oshirish jarayonida bir qancha vazifalarni bajarishga to'g'ri keldi.

Tadqiqotning vazifalari. Ilmiy tadqiqot ishini bajarishda quyidagi vazifalar belgilab olindi.

1. Jizzax viloyatining tog'' va tog'' oldi hududlarida tarqalgan lalmi va sug'oriladigan och tusli o'tloqii-bo'z, tipik va to'q tusli bo'z, kuchsiz ishqorsizlangan jigarrang tuproqlarni ekologik-genetik holati, tuproq paydo qiluvchi omillarini o'rganish va qiyoslash natijasida hududlarning o'ziga xos bo'lgan tomonlarini aniqlash;

2. Eroziyalangan lalmi va sug'oriladigan tuproqlarni morfologik belgilarini, agrokimyoviy, agrofizikaviy va kimyoviy xossalarini o'rganish;

3. Turli xil ekspozitsiyadagi eroziyalangan tuproqlarning gumus miqdori, tarkibi, zahirasi hamda gumusni fraksiyaviy va guruxiy tarkibiga eroziya jarayonini ta'sirini aniqlash;

4. Turli mintaqalarda tarqalgan tuproqlarning gumusi va uning guruxiy-fraksiyaviy tarkibini taqqoslab o'rganish;

5. O'rganilgan tuproqlarning gumusli holatini respublika tuproqlari uchun moslashtirilgan yangi talqin bo'yicha ifodalash;

6. Eroziya jarayonlarini tuproqning gumusli holati va unumdorligiga ta'sirini ko'rsatib berish; Tadqiqot natijalaridan foydalanib tabiatdan (tabiiy geografik landshaftlar) va tabiiy resurslardan (tuproqlar) yanada samaraliroq foydalanish bo'icha ilmiy – amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

I-BOB.TOG'' VA TOG'' OLDI HUDUDLARIDA TUPROQ EROZIYASI

Tuproq — nurash po'stining unumdorlik xususiyatiga, ya'ni o'simliklarni zarur suv va oziq bilan ta'min etish qobiliyatiga ega bo'lgan ustki qatlamidir; o'simliklar ana shu tuproqda o'sib rivojlanadi. Tuproq nurash natijasida hosil bo'lib, o'sha yerning o'zida qolgan yoki suv, muz yo shamol boshqa yerlarga olib borib yotqizgan g'ovak mahsulotlardan paydo bo'ladi.

Har qanday tuproq mineral hamda organik qismlardai ibopat. G'ovak tog'' jinsi hosil bo'lgandan so'ng unda eng sodda organizmlar paydo bo'ladi. Bu organizmlarning hayot faoliyati va halok bo'lishi tog'' jinsini ma'lum miqdorda organik modda bilan boyitadi. O'lik organik moddaning parchalanishidan o'simliklarning ovqatlanishi uchun zarur bo'lgan mineral mahsulotlar paydo bo'ladi. Bu hol endi tuproqda yuksak darajada rivojlangan, ko'proq oziq talab qiladigan o'simliklar o'sishiga imkon beradi, bu o'simliklarning halok bo'lishi natijasida g'ovak mineral jinsga yanada ko'proq organik modda qo'shiladi.

Shunday qilib, tuproq hosil qilgan g'ovak tog'' jinsi (shuning uchun uni ***ona jins*** deyiladi) birdan o'zgara boshlaydi. Uning ustki qatlamlarida organik modda to'plana boradi. Tuproqqa singib, sizot suvlar sathigacha tushib borayotgan suv oson eriydigan birikmalarni tuproqdan yuvib olib ketadi. Aksincha, o'simlik ildizlari tuproqning chuqur qatlamlariga kirib, o'simlikning o'sishi uchun zarur bo'lgan erigan birikmalarni tuproqdan oladi; shu tufayli o'simlik o'zlashtirgan o'zlashtirgan mineral moddalar o'simlik halok bo'lgandan so'ng tuproqning ustki qatlamlarida qoladi. Boshqacha qilib aytganda, organizmlarning hayot faoliyati o'simliklarga oziq elementlari beribgina qolmay, balki bu elementlarning tuproqdan chiqib ketishiga ham yo'l qo'ymaydi.

Tog'' tuproqlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tyerritoriyasining uchdan bir qismini (30,3%) egallaydi. Tog'' tuproqlari MDHning g'arbiy chegarasidan sharqqa tomon yo'nalgan vyertikal zonalik qonuniyati asosida joylashgan. xuddi shu qonuniyat asosida O'rta Osiyo respublikalari tyerritoriyasidagi Pomir, Pomir-Oloy, Tyan-Shan tog'' sistemalaridagi tuproqlarni o'z ichiga oladi. Tog'' tuproqlarini iqlimi tekislikdan tog'' cho'qqisiga ko'tarilgan sari iqlim o'zgaradi. Tempyeratura pasayadi, atmosferaga bosimi kamayadi, havo namligi va yog'in miqdori ko'payadi. Balandlikka ko'tarilgan sari har 100 m.da tempyeratura 0,4-0,5 gradusga pasayib, yog'in miqdori ko'paya boradi. Tog''li rayonlarning kishi uzok bo'lib, kor ko'p yogadi, yozi kiska buladi. Vegetatsiya davri 90 kun va ayrim tog'' sistemasida undan kam bulishi mumkin. Iqlim sharoitining xilma-xilligi o'simliklarning ham turli-tuman bo'lishiga sabab bo'ladi.

Tog''li rayonlarning relefi xilma-xil va juda murakkab. Tog''li hududlarda tuproq turlarining almashinishi, asosan relief ta'sirida iqlim va o'simliklarning o'zgarishi bilan bog'liq. Bulardan tashqari tog'' tuproqlarining rivojlanishida ekspozitsiya (kunga yoki soya tomondaligi) muhim ahamiyatga ega.

Ekspozitsiyani ta'siri ayniqsa eroziya jarayonlariga, tuproqlarni yemirilishiga katta ta'sir kursatadi. Ekspozitsiyalar, yemirilgan tuproq miqdori, %.

Shimoliy-14, Sharqiy-30, Janubiy-36, G'arbiy -16,

Tog''li rayonlarda relief tuproq taqdirini hal qiluvchi faktor hisoblanishini alohida e'tiborga olinadi, ya'ni yog'in suvlari qiyaliklardan tez oqib yer yuzasidagi mayda zarrachalarning ko'p qismini pastliklarga oqizib ketadi, shu tufayli ayrim tog'' sistemalardagi tuproqlar yengil mexanikli, toshli yoki chog'irtoshli bo'ladi.

Tog'' tuproqlarining ona jinslari minyeralogik va ximiyaviy tarkibi hamda fizikaviy hossalarga ko'ra xilma-xil. Tuproq paydo qiluvchi ona jins bo'r, uchlamchi davr chukindisi, oqindi tog'' jinslarning nurash mahsulotlaridan iborat. Tog'' oralig'idagi vodiylar va pastliklarda har xil qalinlikda turli mexanik tarkibli to'rtlamchi davr lyoss, lyossimon yotqiziqlardan iborat. Shunday qilib, tog'' tuproqlarini tabiiy sharoiti har xil balandlikda joylashgan bo'lib dengiz sathidan

900 (1000-2000) 4100 metrgacha joylashgan bo'lib, yuqoriga ko'tarilgan sariq iqlimi, o'simlik dunyosi va tuproqlari bilan bir-biridan keskin farq qiluvchi bir necha mintaqaga ajratish mumkin. Ushbu keltiriladigan ma'lumotlar asosan O'zbekistonni tog'' mintaqasidagi tuproqlarni tabiiy sharoiti va hossa hususiyatlari to'g'risida hisoblanadi..

Pastki tog'' mintakasining qo'ruq dasht va yirik o'tli yarim savvanalarning jigarrang tuproqlari. Bu mintaka dengiz satxidan 900 (1000-1200) - 1200 metrgacha balandlikda joylashgan. Yillik o'rtacha havo harorati $3-10^0S$, yog'in sochinlar miqdori 400-500 mm. Yog'in- sochinlar asosan kuz va bahor fasllariga to'g'ri keladi. Bu yerlarning tuproqlarida qalin o'sgan baland bo'yli o'tlar – bug'doyiq, yovvoyi arpa hamda butalar-do'lana, na'matak, yovvoyi bodom va tog'' olchalari o'sadi. Bu yerlarda jigarrang tuproqlar paydo bo'lib, A-V gumusli gorizonti 60-100 sm. kalinlikda bo'lib, chirindi miqdori 4-5%, morfologik tuzilishi jigarrang chirindili qatlam A. bu gorizont ostida «V», karbonatlar bir muncha pastga yuvilgan, yong'oksimon kesakdor strukturaga ega, bu qatlam pastida syerkarbonatli V_2 - VK qatlamlar mavjud, «S» gorizonti sarg'ish rangli lyossimon ona jinsdan iborat. Bu yerlarda suv yeroziyasi keng tarqalgan, oldini olish uchun asosan tabiiy o't o'simliklarini saqlash, butazorlar va mevali daraxtzorlar barpo qilish kyerak. Chorva mollarini boqish tartib asosida olib borish lozim.

Jigarrang tuproqlar ko'pincha yeroziyaga chalinishi munosabati bilan karbonatlar yuqori - yer betida uchraydi, kuchli yeroziyaga chalingan jigarrang - karbonatli tuproqlar deb aytiladi.

O'rta tog'' mintakasining o'tloqi dasht va o'rmon tuproqlari. o'rta tog'' mintakasi tuproqlari dengiz satxidan 1200-2300 metrgacha balandlikda joylashgan.

Bu mintakada tipik jigarrang tog'' o'rmon va kora qo'ng'ir tog'' o'rmon tuproqlari rivojlangan.

a) **Jigarrang tog''** - o'rmon tuproqlari tuproq-iqlim sharoitlari hamda tog''larning joylashishiga qarab dengiz sathidan 600 metrdan 1200-1500 metrgacha balandlikda joylashgan. garbiy Tyan-SHan sistemasidagi tuproqlar 600-

1000 m. Zarafshon tog'' sistemasida - 1200, Hisorda 1200-1500 m. balandlikda joylashgan, bu jigarrang tuproqlarni dengiz sathidan har xil balandlikda bo'lishligi kuchli shamol va iqlimni quriqligiga bog'likdir.

O'rta tog'' mintaqasining tipik jigarrang tuproqlari bir muncha siyraklashgan o'rmon ostida hosil bo'lib, morfologik tuzilishi ancha yaxshi rivojlangan. Tuproq betida 3-4sm. kalinlikda chala chirigan o'rmon qiyi (A_0), uning ostida 15-20 sm.li syerchirindi qatlam (A_1), rangi qo'ng'ir tusli, mayda kesakdor strukturaga ega., «V» qatlami 100-120 sm. Syerkarbonat «V3» 100-120 sm. qatlami, rangi oqish sariq. Bu tuproqning chirindi miqdori r-10%gacha umumiy azot - 0,20-0,59, fosfor 0,25-30%, kaliy 2,0-2,5 %ni tashkil etadi, singdrish sig'imi 100 gr. tuproqda 20-27 mg/ekv. Bu yerlarda bog'dorchilikni keng rivojlantirish mumkin, noto'g'ri foydalanish natijasida tuproq suv yeroziyasiga chalinib, yaroksiz yerlarga o'tib qolmoqda.

v) **qora-qo'ng'ir tog'' o'rmon tuproqlari.** Bu tuproqlar dengiz sathidan 1250-2000 metr balandlikda joylashgan. qo'ng'ir tog''-o'rmon tuproqlar jigarrang tog'' o'rmon tuproqlari bilan qatorda o'rta tog'' mintakasining syernamli Pskom va Ugam tog''lari yonbagirlarida rivojlangan. Bir yillik yogin miqdori 900-1000 mm.dan oshadi.

Yillik o'rtacha tempyertura 6-12⁰S atrofida. o'rmonlar bu yerda juda yaxshi rivojlangan bo'lib, asosan yong'ok, olma, tog'' olcha, butalardan - na'matak, do'lana kabilar ko'p tarqalgan. Bu tuproqlarni morfologik hususiyatlari - yuqori chimli qavati to'q qung'ir tusli rangli qalinligi A_1 0-7sm (10sm.) bu qatlam osti A_2 10-31 sm. qo'ng'ir bo'z rangli donodor-mayda kesakli strukturali. V_1 gorizont 31-54 sm. Jigarrang-qo'ng'ir rangli, yirik kesakli struktura, zich, V_2 gorizont 54-109 sm. qo'ng'ir-jigarrangli, yirik kesakli strukturali, zich, keyingi gorizont V_3 109-160 sm. Och qo'ng'ir-sargish rangli, karbonatlardan oqish dog'lar pastki gorizontda mayda karbonat tugunchaklari, uncha zichlanmagan, keyingi gorizont S 160-250 sm. Ochroq rangda, karbonatlar kamroq, og'ir mexanik tarkibli. Ushbu morfologik ko'rsatkichlardan shuni ta'kidlash lozimki, qo'ng'ir tog'' o'rmon tuproqni chirindili

qavati, jigarrang tuproqqa nisbatan ancha qalin $A3V_1kV_2$ 100-150 smni tashkil etadi, yuqori qavatlarida chirindi miqdori 5-6% ayrim hollarda -155 ga yetadi, umumiy azot 0,244-0,451, fosfor 0,171-0,216, kaliy 2,35-2,52% tashkil etadi. Bu tuproqlar neytral reaksiyaga ega bo'lib singdrish sig'imi juda katta 100 gr. Tuproqda 25-40 mg/ekv. Bu zonani tabiiy o'rmonlarini saqlash ayniqsa yong'oqzorlarni, yangi daraxtzorlar mevali bog'lar barpo etish borasida ishlar olib borish kerak.

Baland tog'' mintaqasining (subalpak, alpik) qo'ng'ir tusli tog'' o'tloqi va o'tloqi dasht tuproqlari bu mintaqa tuproqlari g'arbiy Tyan-SHan, Zarafshon, Hisor tog''larining suv ayrg'ichlari va unga yondoshgan qiyaliklarda joylashgan. Ular dengiz sathidan 1600-2000 metrdan baland tog''larda hamda 2500-2600 m.gacha balandlikda rivojlangan.

Subalp zonani iqlimi mo'tadil sovuq, yozi qisqa va salqin yog'in miqdori 400 mm. dan 600 mm.gacha yetadi. Bu yerlarda baland bo'yli xilma-xil o'simliklar o'sadi. SHu sharoitda tog'' o'tloq-dasht qo'ng'ir tusli va och tusli qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Tog'' o'tloq-dasht qo'ng'ir tusli tuproqlar ko'prok syernam yon bag'irlarda och tusli qo'ng'ir tusli tuproqlar esa birmuncha quruq yon bag'irlarda uchraydi. Subalp toq rangdagi qo'ng'ir tusli tuproqlarda gumus 4-5 atrofida bo'ladi ozuqa moddalarga ayniqsa azotga boydir (0,45-0,55%). Bu tuproqlar yaylov sifatida foydalaniladi.

Baland tog'' alp tuproqlari dengiz sathidan 3000-4000 m. balanddagi qor yoni zonasini ishg'ol qiladi. Iqlimi sovukq, yozi ham sovuqroq, shuning uchun o'simliklar sust rivojlangan. o'simliklardan o'tloqli yoki dasht o'simliklaridan iborat bo'lib, chala torfli chim hosil qiladi. Bu mintaqada Alp o'tloq-dasht och tusli qo'ng'ir tuproq rivojlanib, chirindi miqdori birmuncha kamligi (2-3% dan 5% gacha), karbonatsiz, kuchsiz kislotali reaksiyasi va asoslarga to'yinganligi bilan xarakterlanadi. Iqlimning g'oyat sovuqligi va relefnig o'nqirligi tufayli baland tog'' alp tuproqlari dehqonchilik uchun noqulay, ulardan yozgi yaylov sifatida foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligida tog'' tuproqlaridan asosan yaylovlar, pichanzorlar, sifatida foydalaniladi., tog'' tuproqlaridan jigarrangli tuproqlardan 10-12% haydaladigan yerlar bo'lib, bu yerlarga bug'doy, moyli ekinlar ekiladi.

1.1.Tuproq eroziyasi haqida tushuncha

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining asosiy vositasi bo'lmish yer -tuproq bioqatlamining barqarorligi va uning ekologiya holatini saqlab turishda ham nihoyatda katta ro'l o'ynaydi. Tuproqshunoslik mutaxassisi o'zi faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yoki alohida hudud tuproqlarini batafsil o'rganish, shu bilan birga tuproq unumdorligini oshirish tadbirlarini qo'llashning sir-asrorlarini juda yaxshi bilishi lozim.

Eroziya — tuproqni tashkil qiluvchi jinslarning suv va shamol ta'sirida parchalanish jarayoni va siljishi. Eroziya ikki xil: shamol eroziyasi va suv eroziyasi bo'ladi.Tuproqning mayda va eng *unumdor* zarrachalarining shamolda yemirilishi va siljishiga *shamol eroziyasi* deyiladi.

Tuproqning ko'klamgi qor va jala, yomg'ir suvlari ta'sirida yuvilishi va yemirilishiga *suv eroziyasi* (suv ta'sirida yuvilish) deyiladi.

Shamol eroziyasi respublikamiz hududilarida eng ko'p tarqalgan. Cho'l mintaqasining va qum dahalarining qariyb 80% shamol eroziyasi ta'sirida bo'ladi Shuning uchun bu yerlardagi o'simliklar dunyosi ham o'ziga xos tavsifga ega.

Suv eroziyasi yerning tuzilishiga bog'lik- Eroziyaning bu turi O'rta Osiyo, Kavkaz, Qrim, Karpat va Janubiy Ural tog'' mintaqalarida ko'proq tarqalgan. Bu jarayon boshlanishi uchun qiyaliklar nishabi 1—2° bo'lsa kifoya. Suv toshqinlari katta-katta maydonlarni yaroqsiz holga keltiradi. Shamol esa tuproqning yoki qumning 3,0 mm bo'lgan zarrachalarini siljitadi. Suv eroziyasining yana bir xususiyati shundan iboratki, u suvga aralashgan tuproqdagi oziq moddalarni eritadi va parchalaydi. Qiyaliklarning nishabi qancha katta bo'lsa, tuproq yuvilishi xavfi shuncha ko'p bo'ladi. Yuqoridagilardan tashqari, relyefning boshka sharoiti ham eroziyaga ta'sir etadi.

Mamlakatimizda tuproq eroziyasini o'rganish o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. O'zbekistonda tuproq eroziyasi, uni kelib chikish sabablari, eroziyalangan tuproq xossalari, ularning tarqalishini obykti katta bo'lmagan maydonlar misolida L.T.Zemlyaneskiy (1937), M.A.Pankov va Z.N.Antoshina (1942), X.M. Maxsudov (1970-2009) o'rganishgan. 60-70 yillarda tabiiy tarixiy sharoitda va madaniylashganlik darajasi turlicha bo'lgan tuproqlarda gumus hosil bo'lishi xossalari taqqoslab o'rganildi. Tuproqlarning gumusi, uning fraksiyaliguruxiy tarkibi, tarqalish qonuniyatlari bo'yicha bir qator olimlar izlanishlar olib borishgan: F. Yu.Gelser (1937,1943), N.I.Sinyagin (1937,1939), P.N.Kostichev (1940), N.P.Remezov (1945,1952), A.N.Rozanov (1951), P.N.Besedin va shogirdlari (1950,1970), M.A.Belousov (1950,1975), S.N.Rijovning shogirdlari bilan izlanishlari (Rijov, Toshqo'ziyev-1976); (Rijov, Ziyamuhamedov 1975), D.A.Maxmudova (1970,1990) va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borishdi.

Mamlakatimizning turli mintaqasi tuproqlarida, organik modda va eroziyaga oid izlanishlar D. L. Atabekova (1990), M.F.Faxrutdinova (1998),N.B.Raupova (2000), G.S.Mirhaydarova (2002) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Demak, tuproqning yuvilishi eng avvalo, yogingarchilik miqdoriga hamda relyefga bog'liq. Suv eroziyasining yana bir turi *abrazi yadir*. Bu hodisa asosan suv omborlari atrofida, daryolar va kanallar qirg'og'ida suv tolqinlari ta'sirida paydo bo'ladi. .

Tuproq organizmlarninfg hayot muhiti, ozuqa manbai, hisoblanadi. Dehqonchilik yuzaga kelishi bilan tuproqni kishilar hayotidagi ahamiyati keskin oshib ketdi. Sug'oriladigan (obikor) yerlarning miqdori Mavorounnahrda ham qariyb 5 ming yillik tatixga ega. Inson o'zi uchun barcha oziq mahsulotlarni bevosita va bilvosita tuproqdan olad.Lekin insoniyat tuproqlarni ko'p ham qadriga yetmaydi. Insoniyat tarixi davomida 2 mlrd ortiq unumdor tuproqli yerlarni yaroqsiz holga keltirgan. Har yili sayyoramizming qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar maydoni sho'r bosishi, cho'llashish yemirilishi natijasida 5-7 mln. gektarga kamaymoqda. Yer yuzining tuproq holatining hozirgi holati kishilik jamiyatining

faoliyati bilan belgilanadi. Yer yuzida eroziya natijasida 3500 ga unumdor tuproqli yerlar ishdan chiqarilmoqda. Suv eroziyasi tog' oldi va tog'li rayonlarda kuzatilmoqda.

RATA-TASSning xabar berishicha, Alyaska qirg'oqlarining ayrim hududlaridagi tuproq eroziyasi 2002 yildagiga nisbatan ikki marta kuchaygan. Ayni vaqtda qirg'oqning o'n besh metrga teng qismi yemirilib bo'lgan.

Ushbu ko'rsatkich 1950 yilda yetti metrni, 1970 yilda esa o'n metrni tashkil etgan. Mutaxassislar mazkur hududni eroziyaga uchragan eng katta hudud deb hisoblamoqda. Xabarlarga qaraganda, eroziya jarayonining tobora avj olishiga to'fonlarning kuchayayotgani, dunyo ummonlari sathining ko'tarilayotgani va suv haroratining oshayotgani sabab bo'imoqda. Hozirgi zamon tuproq kimyosi asosan tuproqlarning tarkibi, tuzilishi, xossalari, kelib chiqishi, rivojlanishi hamda ulaming eng muhim ko'rsatkichi bo'lgan unumdorligiga doir masalalarni tekshiradi va tuproq unumdorligini oshirish uchun zarur tadbirlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Qor erishi, yomg'ir, jala suvlari va sug'oriladigan suvlar ta'sirida tuproqning parchalanishi, yuvilishi va okib ketishi *eroziya* deb aytiladi. Eroziya qadimiy-tarixiy va hozirgi zamon turlariga bulinadi. Kuchiga qarab, eroziyaning normal va tezlik bilan sodir bo'lish imkoniyatlari bor. Tuproq eroziyasi sodir bo'lish shakliga qarab, o'rtacha va tezlashgan turlarga bo'linadi. O'rtacha eroziyada tuproqning tabiiy qayta tiklanishi bilan yuvilishi ortasidagi farq katta bo'ladi. Tezlashgan shaklida esa tuproqning yer yuzasida, ya'ni qiyaliklar yuzasida paydo bo'lgan suv oqimi ta'sirida yuvilishi, yuqori qatlamning tiklanish sur'atiga nisbatan bir necha marta ko'prok vaqtda o'tadi va natijada tuproqning unumdorligi keskin pasayib ketadi. Tuproq eroziyasiga yerning tuzilishi, shakli, qiyaliklarning nishabligi va uzunligi katta ta'sir ko'rsatadi. Bulardan tashqari, yomg'irlarning jala shaklida yog'ishi, tuproqning ichki sharoiti, edafik omillar, insonning noto'g'ri xo'jalik yuritishi ham tuproqning yuvilishiga ta'sir etadi.

2.2. Tuproq eroziyasiga ta'sir etuvch omillar.


Suv eroziyasining qishloq xo'jaligiga zarari nihoyatda katta. Bu hodisaga duchor bo'lgan mintaqalarda yiliga har bir gektardan 5 tonnaga yaqin eng serhosil tuproq zarrachalari yuvilib ketadi. Tuproqning yuvilishi natijasida uning gumus qismi yo'qoladi, uning fizik xossalari va tuzilmasi yomonlashadi, tarkibidagi azot, fosfor, kaliy kabi elementlar kamayadi. Har bir qayta yoqqan

Yomg'ir ta'sirida bu jarayonlar tezlashadi, xatto jarliklar paydo bo'lishiga olib keladi. Yuvilgan tuproq va suvda oqib kelgan boshqqa har xil yuvilish mahsulotlari esa daryolarni, suv omborlarini to'ldira boradi.

Tuproqning yuvilishi sodir bo'ladigan qiyaliklar to'g'ri, bukik, qavariq hamda zinapoya shaklida bo'ladi (1- rasm). Umuman, tuproq, eroziyasiga ta'sir ko'rsatadigan va bu hodisaning sodir bo'lishi bilan bog'lik omillarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Tabiiy tarixiy yer tuzilishi, iqlim-tuproq sharoiti, geologik tuzilishi, o'simliklar qoplamining xolati va xarakteri.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy yoki insonning xo'jalik yuritishi bilan bog'liqliq, omillar—yerlardan foydalanish, qishloq va o'rmon xo'jaligi ishlarini yuritish, mol boqish, foydali qazilmalarni qazish va hokazo (1- jadval).



1- rasm. Tabiatda uchraydigan qiyaliklarning asosiy shakllari:

1- to'g'ri; 2- qavariq; 3- bukik; 4- zinapoya shakli.

Bu omillarning eroziyaga ta'siri juda katta hisoblanadi. Quyida eroziyani keltirib chiqaruvchi omillarni ko'rib chiqamiz.

1. Yog'ingarchilik. Tuproqning yuvilishiga bevosita ta'sir qiladigan omil — yog'ingarchilik (yomg'ir, jala) va qor erishidir. Chunki ularning bevosita ta'sirida qiyaliklarda suv oqimi paydo bo'ladi va uning kuchi bilan tuproq yuvilishi sodir bo'ladi. Iqlim omillaridan boshqalarining, ya'ni harorat, havo namligi va shamolning bu hodisaga ta'siri unchalik katta emas. Ayniqsa, suv o'tkazish xossasi past bo'lgan tuproqlarda yuvilish sezilarli darajada namoyon bo'ladi va suv okimining koeffitsiyenti quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$R = \frac{K}{P}$$

P - suv oqish koeffitsienti;

K - tuproq sathida oqqan suv hajmi (mm);

R – yog'ingarchilik miqdori(mm).

Yoqqan yomg'irning hajmi, yog'ish tezligi va jami yog'ish vaqtiga qarab qiyaliklar yuzasidan oqib tushayotgan suv hajmini va tuproqning yuvilish hajmini oldindan aniqlash mumkin. Yuqorrida aytilgan omillar miqdori qancha ko'p bo'lsa, tuproqning yuvilish hajmi shuncha ortib boradi. Shuningdek, yil mobaynida yog'adigan yomg'ir miqdorining taqsimlanishi alohida ahamiyatga ega. Chunki yog'ingarchilikning bir me'yorda taqsimlanmasligi tuproq yuvilishining oshishiga olib keladi (1- jadval). Ayniksa, jala-yomg'irlar (aprel, may oylarida) yoqqan vaqtda tuproqlarning suvni qabul qilib, shimib, pastki qatlamlarga o'tkazish xossasi keskin kasayib ketadi. Buning natijasida suv toshqinlari sodir bo'ladi, tuproqning yemgirilish hajmi kattalashadi.

O'zbekistonning tog''li tumanlarida qish va ko'klam fasli yog'ingarchilik miqdori ko'p bo'ladigan oylar hisoblanadi. Dengiz sathidan 1000—2000 m balandlikda 24 soat ichida yoqqan yomg'ir hajmi 25—100 mm ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, tog'' sharoitida asosan yomg'ir ko'proq (49—69%) yog'adi (1-jadval). Lekin 1800 m balandlikdan uqorida ko'proq qor og'adi.

1- jadval.

Dengiz sathidan yuqori balandliklarning yog'in miqdoriga ta'siri

Dengiz sathidan yuqori balandlik	Yomg'ir miqdori' (%)	Qo (%)
1100	0,74	
2350	0,67	
1600	0,56	
2100	0,38	

Yomg'ir va qor yil davomida, hatto oy davomida bir xilda yog'maydi. Shuningdek, « quruq fasl», ya'ni umuman yog'ingarchilik bo'lmaydigan iyun — sentyabr oylariiiing ham o'ziga xos xususiyati bor. Bu davrga atigi 5—7%, kuzga 18 %, qish va ko'klamga 75% yog'ingarchilik to'g'ri keladi.

Ba'zi meteorologik stansiyalar (So'qoq meteostansiyasi) ma'lumotlari tahlil qilinganda, yog'ingarchilik qish faslida 241 mm (10,6%), ko'klamda 373,5 mm (47,4%), yozda 33,3 mm (4,3%), kuzda 119,7 mm (17,7%) miqordorida bo'lganligi aniqlangan. Bu yerda yillik o'rtacha yog'ingarchilik miqdori 776 mm ga teng bo'ladi.

«Oqshom» meteostansiyasi ma'lumotlariga ko'ra, bu yerda yog'ingarchilik: qishda 358,7 mm (38,1%), bahorda 378,7 mm (40,1%), yozda 46,2 mm (4,9%), kuzda 158,8 mm (16,9%) ni tashkil etgan. Ko'p yillik yog'ingarchilik miqdori (44 yilda) 943 mm ga teng bo'lgan.

Ko'p yillik ilmiy kuzatishlar natijasida yog'ingarchilik miqdori, yog'in yog'ish tezligi bilan tuproqning yuvilishi o'rtasida uzviy, ya'ni bevosita bog'lanish borligi aniqlangan. Chotqol, Qorjontog'', Turkiston, Hisor tog''lari qiyaliklarida olib borilgan kuzatuvlardan quyidagilar ma'lum bo'ldi: jalaning tezligi 1,0 mm dan 2,0 mm ga oshgan davrda qiyalikdan okib tushayotgan suv hajmi $0,45 \text{ m}^3$ dan $2,0 \text{ m}^3$ gacha ko'paygan, tuproqning yuvilishi 20 marta oshgan. Ayniqsa, may oyida yoqqan jala yomg'irlarning tuproq, yuvilishiga ta'siri o'ta kuchli bo'ladi. Jalaning tezligi 6 marta ortsa, suv oqimini hajmi 10, tuproqning yuvilishi 5—6 marta ko'payadi.

Yerning ustki qatlamidagi suv oqimlari hajmining o'sishi sutkashik yog'ingarchilik miqdoriga chambarchas bog'liq,. Bu hodisalar tuproqning namlik bilan to'yinish vaqtiga, ya'ni aprel — may oylariga to'g'ri keladi. YOG'IN miqdorining 3 marta ortishi, suv oqimini 2 marta ko'paytiradi yoki yog'in hajmi 6 marta ko'payganda suv oqish hajmi 4 martagacha ortadi.

Jala-yomg'irlarning yirik tomchilari ta'sirida tuproq agregatlari parchalanadi va har tomonga sachrab-sochilib ketadi, shuningdek, qiyaliklardan oqib tushayotgan suv oqimi bilan pastliklarga yuvilib tushadi. O'rta Osiyo tog''lari sharoitida yirik yomgir tomchilarning hajmi 7,0 mm gacha yetadi (2- jadval).

Jala yog'ish vaqti (min)	Ko'rsatalgan vaqtda yoqqan yog'ingarchilik miqdori (mm)	Jala yog'ish tezligi
5	2,50	0,50
10	3,80	0,38
15	5,00	0,33
20	6,00	0,30
30	8,00	0,27
40	9,60	0,24
50	11,00	0,22
60	12,00	0,20
120	18,00	0,15
240	27,00	0,11
720	45,00	0,06
1440	60,00	0,004

Jala-yomg'irlarga quyidagilar kiradi (E. Yu. Berg ma'lumoti). Olib borilgan kuzatuvlar, tekshirishlar natijasida jala-yomg'ir tomchilari tuproq unumdorligiga katta ta'sir etishi aniqlangan. Masalan, kuchli jala yoqqanda 170—224 t/ga tuproq, yuvilishi yoki joyidan siljishi aniqlangan. G'arbiy Tyanshan tizimida joylashgan Chotqol, Qurama, Molruzar, Qorjon tog''lari eng kuchli eroziyaga duchor bo'lgan tog'lar hisoblanadi.

Tuproqning yuvilishiga asosan bahorda, ya'ni Yerking ustki qatlami balandliklar, tekisliklar va pastqamliklardan iborat. Agar tog'' qiyaligidan yuqoriga ko'tarilib, uning eng yuqori nuqtasiga chiqib qarasak, u yerda qarama-qarshi tomonga yo'nalgan qiyalikni ko'ramiz. Qiyaliklarning eng nuqtalarini bir-biriga bog'lab turadigan chiziq, suv tarkatgich chiziq, deyiladi. Tog'' tizmalari yoki tog'' oldi tepaliklari bunga misol bo'ladi. Bu suv tarqatgich chiziqdar aniq bir chegaralangan maydonni o'z ichiga oladi. Bu yerda yig'ilgan suv pastliklarga oqib tushadi. Shuning uchun *uni suv yiguvchi maydon*, ya'ni *soy* deyiladi.

Soylarda har xil shakldagi qiyaliklarni uchratish mumkin. Qiyayaliklarning nishabi quyidagi formula buyicha anikdanadi:

$$J=H/L$$

bu yerda J — Qiyalikning nishabi (gradus bilan ulchanadi);

H — Qiyalikniig yuqorigi va pastki qismlari o'rtasidagi farq;

L — qiyalik shu qismining gorizontal holda joylashishi. To'g'ri joylashgan qiyaliklarda tuproq, yuvilishi hodisalari, asosan, uning pastki qismida kuchlirok, bo'ladi. Chunki qiyalikdan osib tushayotgan suvning hajmi borgan sari ortib boradi. Qavariq,jadval.

O'rta Osiyo tog'' maydonlarining balandlik zonalari bo'yicha taqsimlanishi

qiyaliklarda esa tuproq yuvilishi uning eng pastki qismida kuchliroq bo'ladi.

Chunki qiyalikning nishabi uning mazkur qismida ko'prokq Bukik qiyaliklarda

tuproq eroziyasi hodisalari ancha kam bo'ladi. Bu joylar akkumulyasiyasi, ya'ni yuvilgan tuproqdarning to'planishi bilan farq qiladi.

Qiyaliklarning uzunligi ham tuproq yuvilishida alohida ahamiyatga ega. Qiyalikning uzayishi natijasida oqib kelayotgan suv hajmi ortadi. Bu esa suv oqimi kuchini va tezligini oshiradi.

•Tog''lar O'rta Osiyo mintakasining 1/3 kismini tashkil etadi. Ular Turkmanistonda 10, O'zbekistonda 15, Janubiy Qozog'istonda 30, Tojikiston va Qirg'izistonda 90—95% ni tashkil etadi (7 jadval).

2.3.Inson xo'jalik faoliyati va tuproq erroziyasi..

Tog'' va tog'' oldi hududlarda inson ta'sirida ro'y berayotgan antropogan omillariga quyidagilar kiradi:

- * chorva mollarini boqish
- * dehqonchilik
- * turli uy-joy qurilishlari
- * tog''- kon sanoati

T. Norboboyeva (2000) A.S. Tsekanov (1979) ma'lumotlari bo'yicha o'rta Osiyo tog''lari va tog'' oldi tekisliklari yaylovlarida keyingi 40-50 yil ichida hosildorlik 30% dan 50% gacha kamaygan. Shu va boshqa ishlarni tahlil qilish asosida Oqtog'' tizmasi misolida A. Raxmatullayev (2000) tog''larda yaylovlardan noto'g'ri foydalanish cho'llanish jarayoni kuchayib borayotganligi, molar ko'p boqiladigan qishloqlar, ol qo'ralari atroflarida begona o'tlar turi va miqdori ko'payotganligini yozadi. Keyingi yillarda Jizzax viloyatining tog'' va tog'' oldi hududlari Baxmal, G'allaorol, tumanlarining tog''lari chorva mollari uchun yaylov sifatida foydalanib kelinmoqda. Geobotaniklar hisobi bo'yicha ushbu hududlar tog''i atroflariga 1,5 gektar yaylovga bitta qo'y boqilishi mumkin. Bu yaylov me'yori hisoblanadi. Agar shu me'yorga rioya qilinsa, yaylovga zarar yetmasligi kerak. Lekin hozir Turkistontog''i bo'yicha 1 gektarga 2-3 ta qo'y to'g'ri keladi, demak yaylov sig'imiga nisbatan qo'ylar va qoramollar soni me'yordan 4-5 marta hatto 10 marta katta. Shu sababli ham yirik qishloqlar atroflarida cho'llanish o'choqlari tarkib topmoqda. Qishloqlar atrofida 4-5 km radiusda tabiiy o't qoplami kuchli o'zgargan. Eng katta o'zgarish doimo mol boqiladigan 1-1,5 km lik masofadagi qishloqlar atroflari hisoblanadi. Bu joylarda o't qoplami 30% dan 50% gacha yo'qotilgan. Yil davomida katta miqdorda mol boqishdan tabiiy o'tlar o'zlarini tiklay olmaydi, vegetatsiya davrida gullab urug'lanmasdan yo'q qilindi, natijada yer yuzasi yalong'ochlanib qoladi, yoki ularning o'rnini molar

yemaydigan begona o't turlari egallaydi. Bulardan qiltiq kakra, achchiqmiya, hazorasfan, qo'ziquloq, yantoq va boshqalar eng ko'p uchraydi. Yalang'ochlanib qolgan yonbag'irlarda suv va shamol eroziyasi jadallashishiga sharoit yaratdi.

Haqiqatdan ham Jizzax viloyati hududidagi Turkiston va Nurota tog''lari ham tabiiy o't qoplami eng kuchli o'zgargan joylar qishloqlar soylarda buloqlar atroflarida joylashgan bo'lib mollarning soni qishloqlarning katta kichikligiga bog'liq. Biz bu yerdagi bitta o'rtacha kattalikdagi qishloq misolida buni ko'rishimiz mumkin. Masalan Zargar qishlog'ida 150 ta xo'jalik bo'lib har bir oilada o'rtacha 10 bosh qo'y echkilar va 4 bosh qoramollar bor. Bu molar sonini qishloqdagi oilalar soniga ko'paytirsak umumiy mollar soni kelib chiqadi (2100 bosh). Har kuni 2100 bosh mollar qishloq yaqinida yil davomida 4-5 m radiysdagi yerlarga boqiladi. Zargar o'rtacha kattalikdagi qishloq hisoblanadi. Yirik qishloqlar atroflarida har kuni 10 000 boshdan ortiq molar haydaladi. Hozir tog''ining 10-15 % qismi o'rtacha o'zgargan yoylovlar hisoblanadi. Kuchli o'zgargan yaylovlarda qishloqlar atrofida o't qoplami 30-40% yo'qotilgan. O'rtacha o'zgargan yaylovlarda tabiiy o't qoplami 5-20% o'zgargan va yaylov hosildorligi 30-40% kamaygan. Hozir Turkistontog''ida qishloqlarda uzoqdagi mollar nisbatan kam boqiladigan kam o'zgargan yaylovlarda umumiy maydoning 50-60% ni tashkil qiladi.

Turkiston tog''ining geoekologik muhitiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan ikkinchi omil yerlarda lalmi dehqonchilikda foydalanish hisoblanadi. Hozir qir tepalari, yonbag'irlarida katta maydonlar shudgor qilinib turli lalmi ekin turlari ekilmoqda: arpa, bug'doy, no'xat, maxsar, tarvuz va boshqalar. Qir yonbag'irlarini haydashda agratexnik qoidalarga rioya qilmasdan 4-8⁰ qiyalikdagi yonbag'irlar tikkasiga haydalgan yerlardan yomg'ir payti katta miqdorda tuproqlar yuvilib ketmoqda. Tuproqlardagi shamol va suv eroziyasi kuchayishiga tog''ning shimoliy yonbag'rida esadigan "Ilono'tdi" shamolining ta'siri katta. Shamolning tezligi o'rtacha 5-6 m/sek, ba'zan 15-25m/sek.ni tashkil etadi. Yonbag'irlarning Sangzor vodiysi tomon qaragan ekspozitsiyalari "Ilono'tdi" shamoliga ro'paro turganligidan tuproqlarni tez uchirib ketadi.

“Ilono’tdi” shamolini adabiyotlarda Bulung’ur shamoli ham deb yozishadi. Bu shamol qish va kuz erta bahor oylari sovuqni kuchaytiradi, tuproq namligini tez bug’lanishiga olib keladi, qorlarni ochiq yonbag’irlardan uchib ketadi. Yoz oylari esa bug’lanishni tezlashtiradi va tuproq erroziyasini ko’paytiradi. Bu tuproqlarga xos bo’lgan umumiy xususiyat shundan iboratki, bulardabazi bir gidramorf tuproqlardan tashqar chirindi nihoyatda oz, ammo yuqori darajada karbonatlangan bo’ladi.



O’zbekistonning sharqiy va janubiy tog’li qismida balandlik tuproq mintaqalari yaqqol ko’zga tashlanadi. Chunki bu absolyut balandlik ortishi bilan, umumiy qonuniyga ko’ra, tuproq hosil qiluvchi faktorlar o’zgarib boradi. Tuproq hosil

